



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish .....	55
<a href="#">B. X. Sharopov</a>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi .....	59
<a href="#">Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</a>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<a href="#">J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</a>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari .....	67
<a href="#">Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</a>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<a href="#">S. A. Qarshiboyev</a>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<a href="#">Suyunov Rustam Sadriddinovich</a>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari .....	78
<a href="#">Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</a>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<a href="#">Umarov Azizbek Vaxobovich</a>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<a href="#">S. S. Qulmurodova</a>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<a href="#">Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</a>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
<b>Burkhonova Zараfruz Kobilovna</b>	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish .....	102
<b>Bozorboyev Javlon</b>	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
<b>Jamilova Dilsuza To'lqin qizi</b>	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li</b>	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi .....	114
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi</b>	
Fotometrik kattaliklar .....	117
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi</b>	
Qutublangan yorug'lik manbalari .....	121
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina</b>	
Tabiatdagi optik hodisalar .....	125
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi</b>	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish .....	129
<b>Erkinova Nozima Utkir qizi</b>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili .....	133
<b>Ikmatullayev G'. Z.</b>	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish .....	136
<b>Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida</b>	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
<b>Shokirova Mushtariy</b>	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli .....	144
<b>Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li</b>	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
<b>Veronica Khatamova</b>	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
<b>Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li</b>	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida .....	157
<b>Abdukarimov Muhammadjon Muratovich</b>	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot .....	162
<b>Islamova Fotima Shamsiddinovna</b>	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
<b>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</b>	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
<b>Saidova Parvina Mirzo kizi</b>	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari .....	178
<b>Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi</b>	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence .....	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish .....	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili .....	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar .....	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish .....	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili .....	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati .....	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish .....	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari .....	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества .....	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	

# MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA USLUBIY XIZMAT VA HAMKORLIK MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

UDK: 373.2:371.13

S. A. Rahmonberdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
bosh mutaxassisi, Toshkent shahridagi Puchon universiteti  
2-bosqich magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekiston maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish jarayonida uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligini tadqiq qiladi. Tadqiqot tajriba va nazorat guruhlarini ishtirokida o'tkazildi. Pedagoglarning motivatsion-qadriyatli, kognitiv va innovatsion faollik mezonlari bo'yicha kompetensiya darajalari tahlil qilindi. Natijalar shakllantiruvchi o'quv kurslari, seminar va master-klasslar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli oshirishini ko'rsatdi. Tadqiqot shuningdek, uslubiy xizmatni tizimli boshqarish va professional hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyatini tasdiqlaydi. Mazkur ish maktabgacha ta'limda metodik yondashuvlarni takomillashtirish va pedagoglarning uzluksiz professional rivojlanishini ta'minlashga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Uslubiy xizmat, pedagoglar kompetensiyasi, kasbiy malaka, metodik hamkorlik, maktabgacha ta'lim, innovatsion faoliyat, pedagogik ta'lim, professional rivojlanish.

**Abstract:** This article examines the effectiveness of methodological services and collaboration mechanisms in enhancing the professional competence of preschool educators in Uzbekistan. The study was conducted with experimental and control groups. Educators' competence levels were analyzed based on motivational-value, cognitive, and innovative activity criteria. Results indicated that short-term courses, seminars, and masterclasses significantly improved educators' professional skills. The research also demonstrates that systematic management of methodological services and fostering professional collaboration enhances education quality. This study provides a scientific basis for improving methodological approaches and ensuring continuous professional development of preschool educators.

**Key words:** Methodological service, educator competence, professional qualification, methodological collaboration, preschool education, innovative activity, pedagogical training, professional development.

**Аннотация:** В данной статье исследуется эффективность методической службы и механизмов профессионального сотрудничества в процессе повышения квалификации педагогов дошкольных образовательных организаций Узбекистана. Исследование проводилось с участием экспериментальных и контрольных групп. Были проанализированы уровни компетентности педагогов по мотивационно-ценностным, когнитивным и инновационно-деятельностным критериям. Результаты показали, что формирующие учебные курсы, семинары и мастер-классы существенно повышают профессиональную компетентность педагогов. Исследование также подтверждает возможность повышения качества образования посредством системного управления методической службой и развития профессионального сотрудничества. Данная работа служит научной основой для совершенствования методических подходов в дошкольном образовании и обеспечения непрерывного профессионального развития педагогов.

**Ключевые слова:** методическая служба, компетентность педагогов, профессиональная квалификация, методическое сотрудничество, дошкольное образование, инновационная деятельность, педагогическое образование, профессиональное развитие.



## KIRISH

Bugungi kunda dunyoda maktabgacha ta'limni takomillashtirish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan "Hayot davomida sifatli ta'lim olish" konsepsiyasi<sup>[8]</sup>, shuningdek, 2022-yilda "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish" bo'yicha butunjahon konferensiyasida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida<sup>[10]</sup> va OECDning TALIS tadqiqotlari<sup>[9]</sup> maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishi va innovatsion ta'lim metodlarini egallashi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili ekanini ta'kidlaydi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham maktabgacha ta'lim xodimlarining professional tayyorgarligini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish shakl va metodlarini xalqaro tajriba asosida yangilash ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>[2]</sup>. Mazkur jarayonda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda uslubiy xizmatning o'rni va ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishni ta'minlaydigan uslubiy xizmatni boshqarish mazmuni va uni loyihalashtirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish zarur. Tadqiqotning dolzarbligi pedagoglarning professional salohiyatini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish ehtiyoji bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy malakasini shakllantirish va rivojlantirishda uslubiy xizmatning ta'sirini aniqlash hamda ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uslubiy xizmat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim tizimdir. Ilmiy adabiyotlarda u pedagoglarning professional o'sishini ta'minlovchi ijodiy jarayon sifatida qaraladi.

A.I.Vasilyevaning ta'kidlashicha, "maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ish murakkab va ijodiy jarayon bo'lib, u pedagoglarning bolalar bilan ishlash usullari va uslublarini amaliy mashg'ulotlar orqali takomillashtirishga xizmat qiladi"<sup>[7]</sup>.

F.R.Qodirova esa metodistlar "faqat nazariy tayyorgarlikka emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur"<sup>[6]</sup> ligini ta'kidlaydi.

N.A.Muslimov fikricha, "kasbiy kompetensiyani shakllantirishda uslubiy faoliyat pedagogning individual o'sishi, mustaqil fikrlashi va kasbiy madaniyatini rivojlantiruvchi uzluksiz jarayon bo'lishi kerak"<sup>[5]</sup>. Shu bois uslubiy xizmatning vazifasi faqat tayyor metodik tavsiyalarni yetkazish emas, balki pedagogni innovatsion fikrlovchi va refleksiv shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

G.A.Gaynazarova o'z tadqiqotlarida "uslubiy xizmat shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan pedagoglarda motivatsiya, tashabbuskorlik va kasbiy faollik kuchayadi"<sup>[4]</sup> degan xulosaga keladi.


Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uslubiy xizmat pedagogik tizimning muhim rivojlantiruvchi mexanizmi bo'lib, u nafaqat metodik yordam ko'rsatish, balki ta'lim tizimini yangilash, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, miqdoriy va sifat tahlil usullariga asoslandi. Tadqiqot Jizzax va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 180 nafar pedagog ishtirokida o'tkazildi va ular teng nisbatda tajriba (90) hamda nazorat (90) guruhlariga ajratildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi uchun seminarlar, treninglar va metodik mashg'ulotlar tashkil etilib, pedagoglarning metodik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va hamkorlik ko'nikmalari rivojlantirildi.

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv va innovatsion faollik mezonlari asosida baholandi hamda reproduktiv (past), produktiv (o'rta) va ijodiy (yuqori) darajalarga ajratildi. Tajriba va nazorat guruhlarining natijalari solishtirma va korrelyatsion tahlil orqali o'rganildi. Olingan natijalar uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining pedagoglar malakasini oshirish hamda davlat ta'lim standartini joriy etishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi (1-rasm).



**1-rasm: O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimida davlat ta'lim standartini joriy etishda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, uslubiy xizmat faoliyati va pedagoglar bilan samarali hamkorlik mexanizmi**

Pedagoglarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi maktabgacha ta'limda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, ularning uslubiy rivojlanishini ta'minlash va davlat ta'lim standartini samarali joriy etishga xizmat qiladi.



Mexanizm uslubiy xizmatni tizimli tashkil etish, pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim sifati va pedagogik faoliyatni baholash, metodik resurslarni yaratish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Uslubiy xizmat pedagoglarning kasbiy rivojini uzviy va izchil ta'minlab, hamkorlik va tajriba almashinishni rivojlantiradi hamda amaliyotga yo'naltirilgan metodik yordamni ta'minlaydi. Mexanizmning samarali ishlashi tashkilot ichidagi metodik tizim, malakali kadrlar va axborot-resurslar, jumladan elektron platformalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlariga bog'liq.

Amaliy jarayon pedagogik ehtiyojlarni aniqlash, metodik tadbirlarni rejalashtirish, kasbiy rivojlanish faoliyatini tashkil etish, kompetensiyalarni baholash va metodik ishlar hamda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Natijada, mexanizm pedagoglarning kasbiy malakasini tizimli oshirish, uslubiy xizmatni samarali tashkil etish va o'zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali maktabgacha ta'lim sifati oshirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari uslubiy xizmat va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot davomida pedagoglarning motivatsion-qadriyatli, kognitiv hamda innovatsion faollik mezonlari bo'yicha rivojlanish dinamikasi tajriba va nazorat guruhlarida kesimida solishtirma tahlil qilindi.

Shuningdek, pedagoglarning uslubiy xizmatni boshqarish, samarali hamkorlikni tashkil etish va mualliflik metodikasi asosida o'qitish kompetensiyasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tajriba va nazorat guruhlarida uchun Student va Pearson  $\chi^2$  metodlari yordamida tahlil qilindi.

Boshlang'ich diagnostika bosqichida tajriba va nazorat guruhlaridagi pedagoglarning kasbiy kompetensiya darajalari deyarli bir xil ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning aksariyati reproduktiv (past) va produktiv (o'rta) darajada ekanligi aniqlandi. Pedagoglarning uslubiy xizmatning tuzilmasi va funksiyalari haqidagi bilimlari yetarli darajada shakllanmaganligi, metodik ishlarni rejalashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelayotgani kuzatildi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi pedagoglari uchun mualliflik metodikasi asosida tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslari, seminarlar, treninglar va master-klasslar natijasida ularning kasbiy kompetensiyasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, motivatsion-qadriyatli mezon bo'yicha pedagoglarda kasbiy rivojlanishga bo'lgan ichki ehtiyoj, metodik faoliyatga qiziqish va professional o'sishga intilish kuchaydi. Pedagoglar uslubiy xizmat faoliyatini ta'lim sifati oshirishning muhim omili sifatida ang'ay boshladilar.

Kognitiv mezon bo'yicha tajriba guruhi pedagoglarida uslubiy xizmatni boshqarish, metodik ishlarni rejalashtirish va hamkorlik mexanizmlarini tashkil etish bo'yicha bilimlar darajasi sezilarli oshdi. Ular davlat ta'lim standartini joriy etish jarayonida metodik hujjatlardan samarali foydalanish, mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida loyihalash ko'nikmalarini egalladilar. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkichlar nisbatan barqaror holda qolib, sezilarli o'sish kuzatilmadi.


Innovatsion faollik mezon bo'yicha tajriba guruhi pedagoglarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, loyiha va tajriba faoliyatida ishtirok etish, metodik muammolarga ijodiy yondashish ko'rsatkichlari yuqori darajaga ko'tarildi. Pedagoglarning seminar, master-klass, "metodik mahorat kuni" kabi tadbirlarni mustaqil tashkil etish va olib borish qobiliyati shakllandi. Bu holat ularning ijodiy (yuqori) kompetensiya darajasiga o'tganligini ko'rsatdi.

Quyida ushbu hisob-kitoblar natijalari umumlashtirilgan holda keltiriladi hamda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarni aks ettiruvchi 1-jadval taqdim etiladi.

1-jadval: Pedagoglarning kompetentlik darajasi dinamikasi

Hududlar nomi	Darajalar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		Tajribadan oldin pedagoglar soni	%	Tajribadan keyin pedagoglar soni	%	Tajribadan oldin pedagoglar soni	%	Tajribadan keyin pedagoglar soni	%
Jizzax, Toshkent viloyati va Toshkent shahar	Yuqori	26	28,9	49	54,4	16	17,8	34	37,8
	O'rta	43	47,8	28	31,1	31	34,4	20	22,2
	Past	21	23,3	13	14,4	43	47,8	36	40,0
Jami		90	100	90	100	90	100	90	100

Pedagoglarning kompetensiyasi darajasining dinamikasi diagramma orqali ifodalangan (% da) (2-rasm).



2-rasm: Pedagoglarning kompetensiyasi darajasining dinamikasi diagramma ko'rinishida (% da)

Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasidagi farqlarni ishonchli darajada tasdiqladi. Tajriba guruhi pedagoglarida produktiv va ijodiy darajaga o'tganlar ulushi sezilarli oshgan bo'lsa, nazorat guruhida asosan reproduktiv va qisman produktiv daraja saqlanib qoldi. Bu esa shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, korrelyatsion tahlil natijalari pedagoglarning metodik tadbirlarda ishtirok etish darajasi bilan ularning kasbiy kompetensiyasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqladi. Uslubiy xizmat tomonidan tizimli metodik qo'llab-quvvatlash va maqsadli hamkorlik pedagoglarning professional bilimlari, amaliy ko'nikmalari va innovatsion faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol uslubiy xizmatning mavjudligi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, metodik ishlarni tizimli tashkil etish, hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish va pedagoglarni uzluksiz professional rivojlanishga jalb etish ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tajriba-sinov ishlari natijalari uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarini davlat ta'lim standartini joriy etishda samarali mexanizm sifatida qo'llash pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda muhim pedagogik shart-sharoit ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim pedagoglarining uslubiy xizmatni boshqarish va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini tasdiqladi. An'anaviy metodik tadbirlar pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini yetarli darajada shakllantirmaganligi, metodik ishlarning tizimli va maqsadga yo'naltirilmaganligi bilan izohlanadi. Past kompetensiya ko'rsatkichlari maxsus seminar-treninglarning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, pedagoglarning real ehtiyojlariga mos metodik ishlarning muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan o'quv dasturi va metodik yondashuv tajriba guruhida kompetensiya darajasining sezilarli oshishini ta'minladi, samaradorlik koeffitsiyenti 1,106 ga teng bo'lib, nazorat guruhidan 10,6 % yuqori bo'ldi. Qisqa muddatli kurslar va seminarlar pedagoglarning mustaqil bilim olish motivatsiyasini oshirib, ularni metodik faoliyat subyekti sifatida shakllantirdi va professional hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, natijalar tizimli va maqsadga yo'naltirilgan treninglar, seminarlar va kurslarning pedagogik kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, maxsus metodik dasturlar uslubiy xizmatni boshqarish va hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali davlat ta'lim standartini samarali joriy etish va pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda muhim shart ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy malakasini oshirishda uslubiy xizmat va professional hamkorlik mexanizmlarining davlat ta'lim standartini joriy etishdagi samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tajriba-sinov ishlari pedagoglarning motivatsion-qadriyatli, kognitiv va innovatsion faollik mezonlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. Tajriba guruhi pedagoglarida uslubiy xizmatni boshqarish va hamkorlikni tashkil etish bo'yicha kompetensiya darajasi oshib, nazorat guruhiga nisbatan ustunlik tasdiqlandi.



Empirik natijalar metodik ishlarni tizimli tashkil etish, professional hamkorlik muhitini shakllantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish pedagoglarning kasbiy rivojlanishini barqaror ta'minlashini ko'rsatdi. Avtonom rejimdagi qisqa muddatli kurslar va maqsadli seminarlar pedagoglarning mustaqil bilim olish motivatsiyasini oshirib, ularni metodik faoliyat subyekti sifatida shakllantirdi.

Shu bilan birga, tadqiqot uslubiy xizmatni faqat tashkiliy faoliyat emas, balki strategik pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqish zarurligini ham ilmiy jihatdan asoslaydi. Umuman olganda, tizimli boshqarilgan uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarini joriy etish maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy malakasini barqaror rivojlantirishda muhim shartdir. Natijalar amaliyot uchun metodik tavsiyalar va kelgusida uslubiy xizmat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga asos bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" qonuni // 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595-son // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Gaynazarova G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati – Namangan., 2022. – 25-b.
5. Muslimov N. "O'qituvchini kasbiy shakllantirishda tizim va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat muammolari // "Maktab va hayot" J. – Toshkent, 2004. – № 5 43-47-b.
6. Qodirova F.R. va boshk. Maktabgacha pedagogika Toshkent., Tafakkur, 2019, – 685-b.
7. Vasilyeva A.I. и др. Старший воспитатель детского сада: Пособие для работников дошкольных учреждений / А.И. Васильева, Л.А. Бахтурина, И.И. Кобитина. -3-е изд., дораб. М.: Просвещение, 1990. – 143 с.
8. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). // [www.unesco.org](http://www.unesco.org)
9. OECD (2019). TALIS 2018 Results (Vol. I): teachers and school leaders as lifelong. // [www.oecd.org](http://www.oecd.org)
10. World Conference on Early Childhood Care and Education. Tashkent:, Uzbekistan, 14-16 November 2022. // [www.unesco.org](http://www.unesco.org)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.